

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Urganch davlat universiteti rektori v.v.b

S.U.Xadjaniyazov

_____ 2025 yil.

« YO'L HARAKATINI TASHKIL ETISH »

fanining

O'QUV DASTURI

(2 kurs, kunduzgi bo'limlar uchun)

Bilim sohasi: 1000 000 – Xizmatlar
Ta'lim sohasi: 1040 000 – Transport xizmatlari
Ta'lim yo'nalishi: 61040200 – Yo'l harakatini tashkil etish

Urganch – 2025 y

Mazkur o`quv dastur Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Kengashining 2025-yil "23" 06 dagi 11-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O`quv ishlari bo`yicha prorektor: S. U. Xodjaniyazov

O`quv-uslubiy boshqarma boshlig`i: G. R. Matlatipov

Mazkur o`quv dastur "Texnika" fakulteti Kengashining 2025-yil "26" 06 dagi yig`ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (22-sonli bayonnoma).

Texnika fakulteti dekani: M. Q. Qurbanov

Mazkur o`quv dastur "Transport tizimlari" kafedrasining 2025-yil "23" 06 dagi yig`ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (23-sonli bayonnoma).

Transport tizimlari kafedrasini mudiri: S.M. Madaminov

Fan/modul kodi YHTE14512	O`quv yili 2025-2026	Semestr 4/5	ECTS - Kreditlar 7/5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta`lim tili O`zbek		Haftadagi dars soatlari 4/4	
	Fanning nomi Yo`l harakatini tashkil etish	Auditoriya mashg`ulotlari (soat)	Mustaqil ta`lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	4-SEMESTR	74	136	210
2	5-SEMESTR	76	74	150

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitilidan maqsad - Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga ko'ra "Transport xizmatlari" ta'lim sohasida o'qitiladigan "Yo'l harakatini tashkil etish" fan dasturida mutaxassislik uchun zarur bo'ladigan mavzular qamrab olingan. Bakalavriat yo'nalishlarining fan dasturlari hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda ko'rib chiqildi. Dasturning asosiy qismidagi mavzular soha korxonalaridagi mavjud muammolar asosida shakllantirilgan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari ichida ishlab chiqarish va industrial qurilishi hamda qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirishi bo'yicha oldingi o'rinda turadi va ularning barchasi birgalikda har xil transportlar xizmatidan foydalanadilar. Respublika yo'l-transport kompleksi faoliyati samaradorligini oshirish, axolining transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini maksimal ta'minlash mamlakatimiz transport tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Transport tizimining hozirgi kundagi holati zamonaviy texnologiyalarni uning barcha sohalariga izchil tadbiiq etish bilan tavsiflanadi. Shu boisdan ham bu soha bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash sifatiga katta e'tibor berish talab etadi.

Fanning vazifasi quyidagilardan iborat:

talabalarga yo'l harakatini tashkil etish sohasidagi me'yoriy hujjatlar, harakat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari, yo'l harakatini boshqarish jarayonida qo'llaniladigan me'yoriy talablarni o'rgatishdan iborat.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi.

Dasturni amalga oshirish bakalavrning o'quv jarayonida o'zlashtirgan ma'lumotlarga, o'quv rejasiga kiritilgan oliy matematika, fizika, kimyo, nazariy mexanika, chizma geometriya va muhandislik grafikasi, materiallar qarshiligi, materialshunoslik, mashinasozlik texnologiyasi, o'zaro almashinuvchanlik, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, gidravlika asoslari va issqlik texnikasi, avtomobil konstruksiyasi, avtomobil nazariyasi kabi fanlarni bilishiga asoslanadi.

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interaktiv usullarda o'zlashtirishni taqazo etadi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtirilgan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishga qaratiladi. Fanni o'zlashtirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Dasturiy materiallarni o'zlashtirish to'rt xil:

-muammoli mavzular bo'yicha;

-mustaqil o'zlashtirish bo'yicha;

-ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;

-munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha seminar va kollokviumlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba texnik adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy hujjatlar bilan ishlay bilishini namoyon qilishi,

auditoriya mashg'ulotlari paytida o'zlashtirgan axborotni to'g'ri mulohaza qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarurdir.

Fanni ishlab chiqarishdagi o'rni - Talabalarga yo'l harakatini tashkil etish haqida tushuncha va bilimlar berish, haakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha esa chuqur bilim olishlarini ta'minlash, ularning turli ekspluatatsion va iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash, tayyorlanish sifati va texnik darajasi, raqobatbardoshligi kabi ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish bo'yicha malakalar berishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:****4-semestr ma'ruza mashg'ulotlari:**

1-mavzu: Yo'l harakatini tashkil etish faniga kirish
2-mavzu:Harakatni tashkil etishning maqsad va vazifalari
3-mavzu:Yo'l harakatini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari
4-mavzu:"A-H-Y-P-M" tizimining mohiyati va o'zaro bog'liqligi
5-mavzu:Yo'l harakatini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlar tizimi
6-mavzu:Yo'l-transport hodisasi (YTH) tushunchasi va turlari
7-mavzu:YTH ko'rsatkichlari va ularni baholash mezonlari
8-mavzu:YTHlarni hisobga olish va statistik tahlil tizimi
9-mavzu:YTHlarning "A-H-Y-P" tizimiga bog'liqligi
10-mavzu:YTH natijasida iqtisodiy zararlarni baholash
11-mavzu:Yo'l sharoiti ko'rsatkichlarining harakat xavfsizligiga ta'siri
12-mavzu:Yo'lning xavfli bo'laklarini aniqlash usullari
13-mavzu:Xavfsizlik koeffitsiyenti usuli mohiyati
14-mavzu:Avarya koeffitsiyenti usuli va qo'llanish sohalari
15-mavzu:Statistik usulda xavfli joylarni aniqlash prinsiplari

5-semestr ma'ruza mashg'ulotlari:

16-mavzu:Chorahalarda xavfsiz harakatni tashkil etish
17-mavzu:Yo'l harakatini boshqarishning texnik vositalari va ularning tasnifi
18-mavzu:Yo'l belgilarining turlari va joylashtirish tamoyillari
19-mavzu:Yo'l chiziqlari, turlari, ahamiyati va chizish materiallari
20-mavzu:Yo'l to'siqlari va yo'naltiruvchi qurilmalar
21-mavzu:Svetoforlar va ularning boshqaruv tizimlari
22-mavzu:Avtomagistrallarda harakatni avtomatik boshqarish vositalari
23-mavzu:Yo'l-transport xavfsizligini ta'minlashda ekspluatatsiya tadbirlari
24-mavzu:Yo'l qoplamasining sirpanchiligi va ravonligining ahamiyati
25-mavzu:Piyodalar harakat xavfsizligini ta'minlash masalalari
26-mavzu:Harakat sharoiti haqida haydovchilarga axborot yetkazish tizimlari
27-mavzu:Yo'l harakatini tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari va

zamonaviy texnologiyalar
28-mavzu:Dunyo miqyosida va O'zbekistonda avtomobillashuv jarayoni
29-mavzu:Yo'l harakati tizimining asosiy omillari va ularning o'zaro ta'siri
30-mavzu:Yo'l harakatini tashkil etish loyihalari va xalqaro tajriba

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyada har bir akademik. guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

4-semestr amaliy mashg'ulot mavzulari

1. Yo'l harakatini tashkil etish tizimining tuzilmasini tahlil qilish
2. Harakatni tashkil etishning maqsad va vazifalariga oid misollarni ko'rib chiqish
3. Yo'l harakatini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha amaliy topshiriqlar
4. "A-H-Y-P-M" tizimi asosida yo'l harakati jarayonini modellashtirish
5. O'zbekiston Respublikasi YHTE me'yoriy hujjatlari bilan ishlash
6. YTH holatlarini aniqlash va tasniflash
7. YTH statistik ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish
8. YTHlarni hisobga olish bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish
9. YTH sabablarini "A-H-Y-P" tizimi bo'yicha ajratib tahlil qilish
10.YTH iqtisodiy zararlarini bo'yicha hisob-kitoblar
11.Yo'l qoplamasi va sharoit ko'rsatkichlarini baholash usullari
12.Yo'lining xavfli bo'laklarini xavfsizlik koeffitsiyenti asosida aniqlash
13.Yo'l uchastkasining avariyalik darajasini aniqlash
14.Statistik usulda xavfli hududlarni topish mashqi

15.Chorrahalarda ziddiyatli vaziyatlarni tahlil qilish

5-semestr amaliy mashg'ulot mavzulari

16.Yo'l harakatini boshqarish texnik vositalari bilan ishlash
17.Yo'l belgilarini joylashtirish sxemalarini ishlab chiqish
18.Yo'l chiziqlarini loyihalash va ularni chizish uchun materiallarni tanlash
19.Yo'l to'siqlari joylashuvini o'rganish va chizmalash
20.Svetofor sikllarini hisoblash va sozlash usullari
21.Avtomagistral uchun avtomatik boshqaruv tizimi sxemasini tuzish
22.Yo'l ta'miri vaqtida xavfsizlikni tashkil etish rejasini ishlab chiqish
23.Yo'l sirpanchiligi aniqlash bo'yicha tajriba o'tkazish
24.Piyodalar yo'laklarini loyihalash
25.Haydovchilarga axborot yetkazish tizimining modelini ishlab chiqish
26.Zamonaviy texnologiyalar asosida harakatni boshqarish loyihasi
27.O'zbekistonda avtomobillashuv jarayonini tahlil qilish
28.Inson-transport-yo'l tizimini modellashtirish
29.Yo'l holati monitoring tizimi bo'yicha amaliy topshiriqlar
30.Yo'l harakati tashkil etish loyhasini ishlab chiqish

Amaliy mashg'ulotlar tashkillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va bir akademik guruhga bitta professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur.

IIY. Kurs ishi bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (5-semestr):

Kurs loyihasi uchun bajariladigan ishlar taxminiy ro'yxati

1. **Kirish** — loyiha maqsadi, ahamiyati, berilgan shartlar.

2. **Bo'lim 1: Chorrahani tahlil qilish** (chorrahaning geometrik parametrlarini aniqlash).

3. **Bo'lim 2: Transport vositalarini tadqiq qilish** (transport vositalarining harakat jadalligini aniqlash, ko'chaning o'tkazish qobiliyatini aniqlash)

4. **Bo'lim 3: Harakatni tartibga solish vositalarini tadqiq qilish** (svetofor qurilmasi, yo'l belgilari va yo'l chiziqlari).

5. **Bo'lim 4: Chorrahani loyihalash** (konflikt nuqtalarni belgilash, harakat jadalligini aks ettirish)

Xulosa — asosiy natijalar, tavsiyalar.

Kurs loyihasi asosan talabalarning mustaqil ishga ajratilgan vaqti hisobiga bajariladi. Lekin talabalardan bu loyihani o'z vaqtida sifatli bajarish ancha jiddiy mehnat va malakani talab etadi. Shu sababli, kurs loyihasi rahbar va maslahatchi o'qituvchilar o'tiladigan maslahat darslarida talabalarning aksariyat qismida qiyinchilik tug'diradigan masalalarni tushuntirib, talabalar to'g'ri anglashiga va adabiyotlardan to'g'ri foydalanishiga yo'nalish, ko'rsatma va tavsiyalar berishi kerak bo'ladi.

Bunda kurs loyihalari topshiriqlarining ayrim qismlarini dars vaqtida hamma talabalar bilan misol ishlab ko'rilsa maqsadga muvofiq sanaladi. Shu bilan birga, talabalarning kurs loyihagini to'g'ri va o'z vaqtida bajarishga yordam beradigan boshqa choralarni, jumladan, loyihaning ma'lum qismi hisoblari yoki chizmani kompyuter dasturlari yoki grafik dasturlar yordamida bajarishga imkon berish mumkin. Lekin, bu dastur va vositalardan foydalanganda talabaga ko'r-ko'rona ko'chirish yoki dasturdan shablon-andoza sifatida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Bundan tashqari kurs loyihagini iqtisodiy baholash ham bajarilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kurs loyihagini baholash kafedrada tuzilgan komissiya ishtirokida himoya vaqtida amalga oshiriladi.

Kurs loyihasi A1 formatida chorrahaning geometrik parametrlari tushiriladi, konflikt nuqtalar va harakat jadalligi aks ettiriladi.

Talabalarga Urganch shahridagi quyidagi chorrahalar beriladi:

1. Xonqa-Al.Xorazmiy ko'chalari kesishgan chorrahasi;
2. Al.Xorazmiy-P.Mamxud ko'chalari kesishgan chorrahasi;
3. P.Maxmud-Sheroziy ko'chalari kesishgan chorrahasi;
4. A.Boxodirxon-Tinchlik ko'chalari kesishgan chorrahasi;
5. P.Maxmud-Tinchlik-Zarafshon ko'chalari chorrahasi;
6. Zarafshon-O'zbekiston ko'chalari chorrahasi;
7. Zarafshon-I.Karimov ko'chalari kesishgan chorrahasi;
8. P.Maxmud-A.Temur ko'chalari kesishgan chorrahasi;
9. Gurlan-A.Temur ko'chalari kesishgan chorrahasi;
10. Gurlan-Baynalminalchlar ko'chalari chorrahasi;
11. P.Maxmud-Baynalminalchilar ko'chalari chorrahasi;
12. Baynalminalchilar-Fayazova (Yangi Shovot) chorrahasi;
13. Fayazova (Yangi Shovot) -Ma'rifatchilar chorrahasi;
14. A.Boxodirxon-Do'stlik ko'chalari chorrahasi;
15. Al.Xorazmiy-A.Boxodirxon chorrahasi;

16. Al.Xorazmiy-Y.Bobojonov ko'chalari chorrahasi;
17. P.Maxmud-A.Boxodirxon ko'chalari chorrahasi;
18. Al.Beruniy-A.Boxodirxon ko'chalari chorrahasi;
19. I.Karimov-Sheroziy ko'chalari chorrahasi;
20. I.Karimov-Jizzax ko'chalari chorrahasi.

V. Mustaqil ta'lim mazmuni

O'qish jarayonida o'qituv dasturida keltirilgan barcha mavzular o'qituvchi tomonidan to'liq yoritilmaydi, ayrim mavzular to'g'risida o'qituvchi faqat qisqartirilgan hulosaviy ma'lumotlar beradi va o'qituvchi talabalarga bu mavzularni to'liq o'rganish uchun zarur bo'lgan adabiyotlarni tavsiya etadi. Bundan tashqari ayrim mavzular talabalarga ilmiy yondoshishni taqozo etadi. Bu ko'rinishdagi ishlar talabalarga o'qituvchi nazorati ostida bajariladigan mustaqil ish sifatida tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

4-semestr uchun mustaqil ta'lim mavzulari

1. "Yo'l harakatini tashkil etish" fanining rivojlanish tarixi
2. Harakatni tashkil etishning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati
3. Turli mamlakatlarda yo'l harakatini tashkil etish tizimlari
4. "Inson-Transport-Yo'l" tizimining o'zaro ta'sir modellari
5. Yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha xalqaro me'yoriy bazalar
6. YTHlarning ijtimoiy oqibatlari
7. O'zbekistonda YTH ko'rsatkichlarining tahlili
8. YTH ma'lumotlarini avtomatlashtirilgan qayd etish tizimlari
9. Haydovchi omilining YTHga ta'siri
10. YTHlarning iqtisodiyotga ta'siri
11. Yo'l sifati va xavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlik
12. Xavfli yo'l uchastkalarining xaritasini tuzish
13. Yo'l xavfli zonalarini matematik modellashtirish

14. Statistika tahlilining afzalliklari va cheklavlari
15. Samarali chorraha loyihasini yaratish misoli
5-semestr uchun mustaqil ta'lim mavzulari
16. Boshqaruv vositalarining texnik rivojlanish bosqichlari
17. Yo'l belgilarining psixologik idrok etilishi
18. Yo'l chiziqlari sifatining xavfsizlikka ta'siri
19. Yo'l to'siqlari dizaynining xavfsizlikdagi o'rni
20. Svetofor boshqaruvi algoritmlarini o'rganish
21. Sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlari istiqbollari
22. Eksploatatsiya jarayonida xavfsizlik nazorati
23. Qoplama sifati bo'yicha tahliliy hisobot tayyorlash
24. Aholi yashash joylarida piyoda xavfsizligini ta'minlash
25. Axborot tizimlarining yo'l harakati xavfsizligidagi o'rni
26. "Aqlli shahar" konsepsiyasida yo'l harakati boshqaruvi
27. Avtomobillashuvning ekologik oqibatlari
28. Yo'l harakati tizimining ishonchlik tahlili
29. Yo'l holati haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish
30. Xalqaro tashkilotlar va konvensiyalar faoliyatini o'rganish
Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3	<p>VII. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>"Yo'l harakatini tashkil etish" fani talabalarda nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p> <p>Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - iqtisodiyotda transport vositalarining ahamiyati haqida; - transport vositalarining ishlash qobiliyati haqida; - transport vositalarini takomillashtirish yo'nalishlari haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; - transport vositalarining asosiy, ilmiy-texnikaviy muammolari va taraqqiyot istiqbollari; - transport vositalariga asosiy texnik-iqtisodiy talablar; - transport vositalari samaradorligi mezonlari <i>bilishi va ulardan foydalanishini olishi</i>. - transport vositalarining foydalanish xususiyatlariga tegishli asosiy ko'rsatkichlarni aniqlash; - transport vositalarining muayyan foydalanish sharoitlariga moslashuvini va samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish; - transport vositalari konstruksiyasini tahlil qilish va baxolash kabi <i>ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak</i>.
4	<p style="text-align: center;">VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol pedagogik texnologiyalar va grafik organayzerlar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual ishlamlar; <p style="text-align: center;">jamoaga bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</p>
5	<p style="text-align: center;">IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni yoki test (30 ta) ni topshirishlari kerak.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Q. Azizov. SHAHAR YOLLARIDA HAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH. 264 bet Toshkent.</p> <p>2. K. Azizov. ХАРАКАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. Тошкент 2019 йил</p> <p>3. E. Z. Fayzullayev. Transport vositalarining tuzilishi va nazariyasi. Darslik</p>

Toshkent-2006.- 377bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaati. 2020 y. 24 yanvar.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "Uzbekistan", 2017.-488 S.
4. O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi. Toshkent 1994 y.
5. O'zbekiston Respublikasining "Yo'l xarakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent 2015 yil №3127-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Toshkent 2022 y.

Axborot manbalari

1. [htt.www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)
2. [http.www.madi.ru](http://www.madi.ru)
3. [http.www.traktor.ru](http://www.traktor.ru)
4. www.lex.uz
5. www.my.gov.uz

7 **O'quv dasturi** Abu Rayhon nomidagi Urganch davlat universiteti Kengashning 2025 yil 28 06 dagi 11-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

8 **Fan/modul uchun mas'ullar:**
S.Madaminov- UrDU, "Transport tizimlari" kafedrasini mudiri
I.Ro'zmetov - UrDU, "Transport tizimlari" kafedrasini dotsenti

9 **Taqrizchilar:**
B.Sabirov-UrDU Transport tizimlari kafedrasini professori, t.f.n.
X.Yakubov - UrDU Transport tizimlari kafedrasini dotsenti, t.f.n.